

ORFOEPIYA ME'YORLARI VA ULARNING OMMAVIY NUTQDA BUZILISHI

Mirzakalonova Xurshida Xakimjonovna

Jo'raboyeva Xolisxon Jahongir qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti

“Boshlang'ich ta'lim” yo'nalishi talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi orfoepiya me'yorlari, ularning tilga oid, tilshunoslikka tegishli va zamonaviy ommaviy nutqda buzilishi masalalari yoritilgan. Orfoepiyaning fonetik, fonologik va orfografik qonuniyatlariga tayanadigan me'yorlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va og'zaki nutq amaliyotida uchrayotgan talaffuz xatolari – unli va unli tovushlarning o'zining aniq, to'liq talaffuz xususiyatini yo'qotib, betaraf holga o'tishi, ortiqcha tovush qo'shilishi, urg'uning buzilishi va shevalar ta'sirida sodir bo'ladigan o'zgarishlar atroflicha o'rganilgan. Shuningdek, me'yor buzilishining ijtimoiy va ta'limiy sabablari tahlil etilib, orfoepik savodxonlikni oshirish bo'yicha ilmiy xulosalar berilgan. Tadqiqot natijalari orfoepiyaning umumiy til madaniyatidagi o'rni yuqori ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlari: Orfoepiya, adabiy til me'yorlari, to'g'ri talaffuz, ommaviy nutq, fonetik buzilish urg'u qoidalari, assimiliyatsiyasi, til madaniyati, nutq madaniyati.

Аннотация. В данной статье рассматриваются орфоэпические нормы узбекского языка, вопросы их лингвистической природы, а также проблемы нарушения данных норм в современном массовом дискурсе. С научной точки зрения проанализированы орфоэпические нормы, опирающиеся на фонетические, фонологические и орфографические закономерности. В статье подробно изучаются произносительные ошибки, встречающиеся в средствах массовой информации, социальных

сетях и устной речевой практике, такие как утрата четкой и полной артикуляции гласных и согласных звуков, их нейтрализация, добавление лишних звуков, нарушение ударения и изменения, происходящие под влиянием диалектов. Кроме того, проанализированы социальные и образовательные причины нарушения норм, а также представлены научные выводы по повышению уровня орфоэпической грамотности. Результаты исследования подтверждают значимость орфоэпии в системе общей языковой культуры.

Ключевые слова: орфоэпия, нормы литературного языка, правильное произношение, массовая речь, фонетические нарушения, правила ударения, ассимиляция, языковая культура, культура речи.

Abstract. This article examines the orthoepic norms of the Uzbek language, their linguistic and theoretical foundations, as well as issues related to their violation in contemporary mass discourse. The study provides a scientific analysis of orthoepic norms based on phonetic, phonological, and orthographic principles. It explores pronunciation errors commonly observed in mass media, social networks, and oral speech practices, including the loss of clear and complete articulation of vowels and consonants, sound neutralization, insertion of extra sounds, stress misplacement, and changes caused by dialectal influence. In addition, the social and educational factors contributing to norm violations are analyzed, and scholarly conclusions are presented regarding the improvement of orthoepic literacy. The research findings highlight the significant role of orthoepy in the overall culture of language use.

Keywords: orthoepy, literary language norms, correct pronunciation, mass speech, phonetic violations, stress rules, assimilation, language culture, speech culture.

KIRISH

Orfoepiya –adabiy tilning to'g'ri talaffuz normalarini belgilovchi tilshunoslik sohasi bo'lib, jamiyatda nutq madaniyatining shakllanishi va rivojida muhim o'rin tutadi.2020-yil 20-oktyabrda qabul qilingan “O'zbekiston tilini yanada rivojlantirish va til siyosati” ga oid farmon – bu hujjat orfoepiya,til madaniyati va adabiy o'zbek tilining jamiyatdagi o'rnini oshirishga qaratilgan. Farmon doirasida:adabiy o'zbek tilini yoshlar va ommaga keng tat'biq qilish, davlat organlarida, ommaviy axborot vositalarida o'zbek tili sohada to'g'ri nutq mazmunli talaffuzni ta'minlash choralari belgilangan.

Farmonda, 2020-2030-yillarga mo'ljallangan til siyosati konsepsiyasi tasdiqlangan. Unda “o'zbek tili”ni davlat tili sifatida to'liq, ko'p tarmoqli, ijtimoiy-siyosiy, ta'lim, Ommaviy axborot vositalari va rasmiy hujjatlarda keng foydalanishni ta'minlash, shu jumladan til madaniyati va nutq madaniyatini baholash ahamiyatli vazifa qilib berilgan. Ushbu hujjat doirasida, ommaviy axborot-televideniya, radio, ommaviy kommunikatsiyalar- uchun o'zbek tili adabiy normalari, talaffuz va nutq madaniyatini targ'ib qilish, televizion efirlar, radio gazetalar, rasmiy matnlarda tilimizga to'g'ri va chiroyli munosabatni ushlshga alohida e'tibor qaratilgan. Ommaviy nutiqda orfoepik me'yorlarga amal qilish tilning umummilliy qiyofasini saqlash,axborotni aniq va ravon yetkazish,nutq estetikasini taminlashda asosiy omil hisoblanadi.Keling yillarda ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarda orfoepiya me'yorlarining buzilishi tez-tez uchrayotgani mazkur muammoni o'rganish dolzaribligini oshirmoqda.

O'zbek adabiy tilida orfoepiya me'yorlarini saqlash va ularni ommaviy nutiqda to'g'ri qo'llash masalasi bugungi kunda alohida dolzarbliklik kasb etmoqda.

Birinchiidan, globallashuv jarayonlari, axborotlashgan jamiyatning shakillanishi va ommaviy kommunikatsiya kanallarining kengayishi natijasida nutqiy madaniyatning sifatiga bo'lgan talab ortib bormoqda. Aholi, ayniqsa, yoshlartomonidan internet, ijtimoiy tarmoqlar, televidenie va radio ommaviy axborot vositalari keng foydalanilmoqda. Ular orqali tarqaladigan nutqning orfoepik jihatdan noto'g'ri bo'lishi adabiy til me'yorlarining buzilishiga, nutq madaniyati darajasining pasayishiga olib kelmoqda.

Ikkinchiidan, sheva va dialektlarning omma orasida faol qo'llanishi orfoepiya qoidalarining qo'ldan boy berilishiga sabab bo'lmoqda. Shevalashuvning Ommaviy Axborot Vositalarida, blogerlar nutqida, ta'lim muassasalarida va kundalik muloqotda kuchayishi adabiy tilning fonetik barqarorligiga jiddiy xavf soladi.

Uchinchiidan, chet tillar, ayniqsa ingliz va rus tillarining ta'siri orfoepiya me'yorlarining buzilishiga omil bo'lmoqda. Chet tilidagi talaffuzlarning to'g'ridan-to'g'ri o'zbek nutqiga ko'chirilishi urg'u, intonasiya va tovush qatorlarining o'zgarishiga sabab bo'ladi.

To'rtinchiidan, ta'lim muassasalarida orfoepiya bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani, orfoepik lug'atlar va audio-me'yoriy materiyallarning kamligi uning yanada ahamiyatli mavzuga aylanishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, davlat tilining nufuzini oshirishga qaratilgan islohotlar, jumladan, til madaniyatini yuksaltirish borasidagi qonunchilik talablari orfoepiya me'yorlarini ilmiy asosda o'rganish va amaliyotga tatbiq etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

ASOSIY QISM

Orfoepiya me'yorlari tilning fonetik va fonologik qonuniyatlariga tayanadi. Unli va undosh tovushlarning pozitsion o'zgarishlari assimilyatsiya va dissimilyatsiya jarayonlari adabiy talaffuzning asosiy komponentlari hisoblanadi. Masalan: jonli nutqda undoshlar o'zaro ta'sirga kirishib, aytgan-aytgan, ketayotgan-ketayotkan kabi me'yoriy shakllar xosil qiladi. Shu bilan

birga, o'zbek tiliga xosfonetik qonuniyatlarining (urg'uning oxirgi bo'g'inga tushishi, qo'shaloq undoshlarning soddalashishi.) saqlanishi adabiy nutqining barqarorligini ta'minlaydi. Adabiy talaffuzning lingvistik asoslaridan yana biri-orfografik shakl bilan talaffuz o'rtasidagi mutanosiblikdir. Ayrim so'zlarda yozuv tarixi saqlangan bo'lsa-da, ularning zamonaviy fonetik qonuniyatlarga bo'ysunadi. Masalan, bo'ladi so'zi boladi shaklida talaffuz qilinishi fonetik iqtisod tamoyili bilan belgilanadi va me'yoriy hisoblanadi.

O'zbek tilidagi asosiy orfoepiya qoidalari: O'zbek adabiy tilida orfoepiya qoidalari bir nechta yo'nalishni qamrab oladi.

Assimilyatsiya me'yorlari: Assimilyatsiya—qo'shni tovushlarning bir-biriga moslashishi. O'zbek tilida u asosan undoshlar o'rtasida kuzatiladi: Qilgan-qilgan, aytadi-aytadi (Me'yoriy) Aytgan-aytgan, ketayotgan-ketayotgan.

Unli tovushlarning qisqarishi: yordamchi vazifadagi unlilar nutqida qisqarishi mumkin: kelayotgan-kelyapman me'yoriy talaffuz.

So'zlardagi urg'uni qo'llash qoidalari: o'zbek tilida urg'u asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi: muallim, muzika, telefon, muzey. Boshqa tillar ta'siridagi telEfon, muAllim kabi holatlar noto'g'ri.

Qardosh tillardan kirgan so'zlarning me'yoriy talaffuzi: rus, arab va fors tillaridan kirgan so'zlar o'zbek tilining fonetik qoidalariga moslashadi: kuxonya emas, kuxona; stantsya emas stansya; muzEy emas muzey.

Ommaviy nutqda orfoepiya me'yorlarining buzilish turlari: fonetik buzilishlar; Unlilarning o'zgarishi kerak-kirrak; qiladi-qilidi. Ortiqcha tovush qo'shilishi (proteza); ilon-yilon; istagan-xistagan. Tovushlarning sheva orqali o'zgarishi boryapman, kelayabdi, ketayatti.

Urg'uning noto'g'ri qo'yilishi: teleradio orqali tarqaladigon xatolar; muAllim, telEfon, dokUment va boshqalar.

Leksik - orfoepik buzilishlar



Chet til ta'siridgi talaffuzlar: Video – vidiyo Onlayn – onlayin.

Internet – media nutqdagi sun'iy qisqartmalar: xafa bo'ldim – xfbldm.

Buzilishlarga olib keluvchi omillar

O'zbekistonda dialaektlar soni ko'p bo'lib, ularning ommaviy nutqga kirib kelishi orfoepiyaning buzilishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, bloggerlar va influenserlar nutqi sheva ta'sirining tez tarqalishiga xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalarida orfoepiya nazoratining yetarli emasligi Tele-radio eshittirishlar, reklama roliklari va internet kontentda orfoepik tahrirning yo'qligi me'yoriy nutqning buzilishiga olib keladi.

Ta'lim jarayonida amaliy orfoepiyaning kam o'rganilishi.

Maktab va oliy ta'lim muassasalarida fonetika bo'yicha nazariy bilim berilsa-da, amaliy mashg'ulotlar yetarli emas. Bu esa o'quvchilar va talabalarning adabiy talaffuzni amalda qo'llashini qiyinlashtiradi.

Chet tillari ta'siri

Rus va ingliz tillari fonetikasidagi urg'u va intonatsiya o'zbek tiliga ko'chirilib, urg'u me'yorlarini buzadi. Masalan, muAllim deb aytish ruscha urg'u ta'siri natijasidir.

Orfoepiya me'yorlarini mustahkamlash yo'llari

- Ommaviy Axborot Vositalarida orfoepiya ekspertizasini kuchaytirish;
- Orfoepiyaga oid audio-lingvistik darsliklar yaratish;
- Ta'limda fonetika va orfoepiya bo'yicha amaliy mashg'ulotlar sonini oshirish;
- Orfoepiya lug'atlarini yangilash va elektron variantlarini ommalashtirish;
- Bloggerlar va Ommaviy Axborot Vositalari xodimlari uchun nutq madaniyati bo'yicha seminarlar o'tkazish.



XULOSA

Orfoepiya me'yorlari adabiy nutqning ravonligi va aniqligini ta'minlaydigan asosiy omildir. Ommaviy nutqda kuzatilyotgan talaffuz



buzilishlari asosan sheva unsurlarining ta'siri, xorijiy fonetik omillari va amaliy orfoepik tayyorligining yetarli emasligi bilan bog'liq. Bu holatlar adabiy me'yorlarning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Me'yoriy talaffuzni mustahkamlash uchun Ommaviy Axborot Vositalarda nutq nazoratini kuchaytirish, ta'lim jarayonida amaliy fonetika mashg'ulotlarini rivojlantirish va orfoepik qo'llanmalar imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Ushbu yondashuv o'zbek tilining adabiy standartlarini mustahkamlab, jamiyatning umumiy nutq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Abdullayev F. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent:Fan, 2019.
2. Boboqulov A. ,Rahmatullayev Sh. Nutq madaniyati va uslubiyat. – Toshkent universitet, 2020
3. Qo'ng'urov P. Orfoepiya va orfografiya masalalari. – Toshkent Fan, 2017.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent Fan, 2006.
5. Normatova D. Ommaviy nutqda orfoepik me'yorlar. 2022.

